

UDK 811.512.133

**BALANDLIK SHAKLINI IFODALOVCHI OROGRAFIK TERMINLAR VA
O‘ZBEKISTONNING JANUBIY HUDUDLARIDA ORONIMLARINING
YASALISHI**

Begimov Odil To'xtamishovich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, filologiya fanlari doktori

beginimovodil@mail.ru

Shodmonova Nigora Irgashyevna

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

O'zbekistonning Janubiy hududlarida oronimlarining tadqiqi, ularning yasalishida balandlik tushunchasi bilan bog'liq orografik terminlar muhim ahamiyatga egaligini ko'rsatdi. Maqolada oronimlar yasalishida xarakterli bo'lgan shunday indikatorlarning tarixiy-lisoniy xususiyatlari yoritilgan.

***Kalit so'zlar:** oronim, oronimiya, indikator, termin, tog', adir, cho'qqi, balandlik.*

АННОТАЦИЯ

Изучение оронимов южных регионов Узбекистана показало значение орографических терминов, связанных с понятием высоты, в их формировании. В статье описаны историко-лингвистические особенности таких показателей, характерных для образования фонем.

***Ключевые слова:** ороним, оронимия, показатель, термин, гора, холм, вершина, высота.*

ABSTRACT

The study of oronims in the southern regions of Uzbekistan showed the importance of orographic terms related to the concept of height in their formation. The article describes the historical-linguistic features of such indicators, which are characteristic for the formation of phonemes.

***Key words:** oronim, oronymy, indicator, term, mountain, hill, peak, height.*

KIRISH

Ma'lumki, oronimlar reliefning musbat (qabariq) va manfiy (botiq) shaklini ifodalovchi geografik obyektlarning atoqli oti hisoblanadi. Bunday atoqli otlar,

asosan, shu turlarga tegishli tushunchalarni ifodalaydigan terminlar vositasida yasaladi. Biz bu maqolada relefning musbat shakli, ya'ni balandlik tushunchasi bilan bog'liq terminlarning leksik-semantik xususiyatlari va ularning oronimlar yasalishidagi ishtiroki masalasini Janubiy O'zbekiston materiallari asosida ko'rib chiqamiz. Ular ishtirokida yasalgan oronimlar asosan yer sathidan baland bo'lgan geografik obyektlarga tegishli. Nom ijodkorlari bo'lgan mahaliy aholi atroflaridagi yoki o'zlari munosabatda bo'lgan orografik obyektlarning hajmi, shakli, ko'rinishi, balandlik darajasi, miqdor belgilari va boshqa xususiyatlarini ifodalovchi turli terminlarni yaratishgan. Keyinchalik shu terminlar orografik obyektlarning xususiyatlarini ifodalovchi indikator sifatida oronimlarning shakllanishida xizmat qilgan.

Ma'lumki, balandlik tushunchasi bilan bog'liq har qanday orografik termin oronimik indikator bo'lolmaydi. Biz maqolada oronimlar va ulardan kelib chiqqan boshqa turdagi joy nomlari tarkibida indikator bo'lib kelish imkoniyatiga ega bo'lgan so'z va atamalar ustida to'xtalamiz.

TADQIQOTNING METODOLOGIK ASOSLARI VA USULLARI

Tadqiqot metodologiyasi tilshunoslikda amal qiladigan tarixiylik tendentsiyasiga asoslanadi, ya'ni barcha hodisalar tarixiy-ijtimoiy voqelik bilan bog'liq holda talqin qilishga asoslanadi.

Tadqiqotning ilmiy-nazariy bazasini zamonaviy tilshunoslikning onomosologiya sohasida qo'llaniladigan ilmiy fikrlarni tahlil qilish usullari tashkil etadi. Shuningdek, toponimlarning lingvistik tadqiqida jamoa va xususiylik, mohiyat va hodisa, shakl va mazmun bilan uyg'unlashgan dialektik qonuniyatlarga asoslanadi.

Asosiy tadqiqot usuli sifatida qiyosiy-tarixiy, qayta tiklash, tuzilish va shakllanishga ko'ra tahlil qilish, til faktlarini solishtirishdan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Adir. Orografik termin sifatida tog' etagidagi cho'l va chala cho'l qirlarni ifodalaydi. Respublikamizning tog'oldi hududlarida ko'p uchraydi. Jumladan, Janubiy O'zbekistonda Qoratepa adiri, Miroqi adiri, Yakkabog' adiri, G'uzor adirlari mavjud. XI asrlar turkiy tilida aziz so'zi ham adir ma'nosida qo'llanilgan. Jumladan, Maxmud Koshg'ariy lug'atida aziz – "baland yer va boshqa baland narsalar" ma'nosida kelishi ko'rsatilgan. U aziz tog' birikmasi tarkibida kelib, "oshib o'tish mumkin bo'lmagan tog'" ma'nosini berishi ko'rsatilgan [9: I, 88]. T. Nafasov ham aziz va adir so'zlari o'zakdosh ekanligini ta'kidlagan, ular tarkibidagi z va d

tovushlaridagi farqlar talaffuz xususiyatlaridan kelib chiqqanligini, soʻz oxiridagi r~z tovushlari coʻz yasovchilik vazifasining bajarishini koʻrsatgan [14:10].

Ayri. Bu soʻz orografik xarakterdagi termin hisoblanib, u ayri ~ ayriq – “ayrilgan, ajralgan; oʻrkachga oʻxshash balandlik, orasi kichik oʻyiq bilan ajralib turgan, yonma-yon joylashgan koʻp kichik tepalardan iborat boʻlgan balandlik” tushunchalarini ifodalaydi. Shu tushuncha asosida orografik obʼektlarning nomini yasalishiga xizmat qiladi: Qoraayri (Do., balandlik), Oqayri (Do., Qm., balandlik), Ogʻayri (Qm., q-q).

Bayir//boyir. Bu soʻz orografik atama sifatida bir qancha turkiy tillarda uchraydi. Bu soʻz bayir ~ boyir ~ bayыр ~ bair shakllarida qozoq, qirgʻiz, qoraqalpoq, turk, turkman, ozarbayjon, nugʻay, gagauz, qirim-tatar tillarida turli fonetik variantlarda uchraydi. U bu tillarda turli maʼno xususiyatlariga ega: tepa; doʻnglik; balandlik; togʻ yonbagʻri, qiyalik; tekislik, yalanglik; haydalmagan yer. Jumladan, turkman tilida bayыр – doʻnglik, balandlik; qozoq tilida bayыр – qumli choʻllarda shamol natijasida hosil boʻlgan botiq joy [8:47]. Eski oʻzbek tilida boyir – kichik tepa, tekislikdagi hajmi kichik balandlik maʼnolariga ega boʻlgan. Alisher Navoiyning “Nasoyimul muhabbat” asarida shu maʼnoda qoʻllangan [13:I,309]. Bu soʻz orografik indikator sifatida oronimlar yasalishiga xizmat qilgan: Qorabayir (Shs., tepa) – unchalik baland boʻlmagan tepa. Turkmanistonda Qizilboyir, Qiziljaboyir, Qorabayir, Birinboyir, Yelboyir, Yetimboyir, Darvozaboyir degan balandliklar bor. Shuningdek, bu soʻz toponimlar tarkibida aniqlovchi komponent boʻlib ham keladi: Boyirgaza (Chr., gaza), Bayirkoʻl (Yab., koʻl).

Boʻktar. Bu oronimik indikator hisoblanib, baʼzi turkiy tillari, jumladan, qirgiz tili, shuningdek, oʻzbek tilining baʼzi bir qancha shevalari (masalan, Zomin, Gʻallaorol tumanlari)da “togʻ etagi” tushunchasini ifodalaydi. Bu soʻz Mahmud Koshgʻariyning «Devonul lugʻatit turk» asarida ham qayd etilgan. Maxmud Koshgʻoriy uni boʻktir – “togʻ oldi, togʻdagi tepalik joy” shaklida qoʻllagan [9 : I, 424]. Qirgʻiz tilida bekter, oʻzbekchada boʻktar – “tepalik” (asosan togʻ oldi hududida). Demak, bu soʻz oʻz maʼno xususiyatiga koʻra “adir” soʻziga mos keladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, Boʻktaryoʻl (Zomin) toponimi - “togʻ oldi hududidan, adirlikdan oʻtgan yoʻl” maʼnosiga ega. Bu termin qozoq tilida ham shu maʼnoda qoʻllanadi. G. Konkashpaev Amonbukter toponimini keltirgan [126 : 189].

Boʻrlik. XII - XIII asrlar turkiy tilida – tepalik, qir; chakalak, toʻqay. «Hibatul-haqoyiq»da ham shu maʼnoda qoʻllangan [12:260]. Boʻllik (Chr. adir, balandlik) oronimi shu indikator asosida kelib chiqqan.

Dumaloq. Bu soʻz orografik atama sifatida “uchi konussimon, girdi silliq choshtepa shaklida boʻlgan balandlikning bir turini ifodalaydi. U anglatgan

tushunchasi bilan bog‘liq orografik ob‘ektlarning nomlarini yasalishiga xizmat qiladi. Jumladan, Janubiy O‘zbekistonning Qoradumaloq, Oqdumoloq (Do., balandliklar) oronimlari tarkibida oronimik indikator sifatida kelgan.

Do‘ng. Bu so‘z orografik termin sifatida “cho‘qqisimon balandlik, yer sathidan ko‘tarilgan balandlik” tushunchalarini ifodalaydi. Bu so‘z qadimgi turkiy va mo‘g‘ul tillaridagi qara~xara – “balandlik, do‘nglik” ma’nosidagi so‘zga sinonim. Bu termin do‘ng ~ to‘ng shakllarida oronimlar yasalishiga xizmat qilgan: Qorado‘ng (Nsh., joy), Boydo‘ng (Chr., tepa).

Sirt. Bu so‘z turkiy tillarga tegishli bo‘lib, M. Koshg‘ariy asarida keltirilishicha, XI asrlarda qipchoqcha “kichik tepa, kichik vodiy” ma’nolarini bildirgan [9: I, 328]. Orografik xarakterdagi termin sifatida oronimlar va boshqa turdagi ob‘ektlar nomlari tarkibida uchraydi: Belassirt (Do., balandlik), Qorasirt (Do., tog‘).

Tal//tall. Bu so‘z kelib chiqishiga ko‘ra arab tiliga tegishli bo‘lib, o‘zbek tiliga “tepa, tepalik” ma’nosini beradi [19:II,310]. Janubiy O‘zbekiston oronimiyasida keng tarqalgan. Jumladan, Tallaktog‘ (Sho., tog‘), Tallipaxsa (Msh. balandlik), Tallisor (Qr., tepa), Tillatepa (aslida Tallitepa, Do.), Taliqiztepa(Qr.), Talliqo‘rg‘ontepa (Qr.). Bu so‘z XIV – XVI asrlar “Vaqfnoma” larida joy nomlari tarkibida ko‘p uchraydi [21].

Tepa//tuva. Bu so‘z termin sifatida usti gumbaz shaklidagi, yonbag‘irlari qiya, do‘ng, baland bo‘lgan orografik ob‘ekt turini ifodalaydi. Nisbiy balandligi 200 m dan oshmaydi. Janubiy O‘zbekiston ayrim shevalarida teva, to‘ba, tuva [196]; xorazm shevasida toba, dapa shakllarida qo‘llanadi [16:15]. Bu indikator boshqa turkiy tillarda ham shu ma’noda qo‘llanadi. Jumladan, oltoy tilida tobe, boshqird tilida tuba, turkman tilida depe, qoraqalpoq tilida tobe shakllariga ega. Joy nomlari tarkibida ko‘p uchraydi: Barintepa, Barsag‘ontepa, Bozortepa, Yetimtepa, Bag‘ishto‘ba, Tevat va h.k.

Taram. Bu so‘z orografik termin sifatida cho‘qqi, qoya singari uchli balandliklarning tizmasimon yoki qirga o‘xshash bir qismining yonma-yon kelishi bilan bog‘liq tushunchani ifodalaydi. U mahalliy xarakterdagi oronimik indikator sifatida Janubiy O‘zbekiston oronimlarining yasalishiga xizmat qiladi: To‘g‘iztaram (qoya, balandlik).

Uva. Bu so‘z orografik xarakterdagi termin bo‘lib, Quyi Qashqadaryo shevasida uva - “tekis joydagi, cho‘ldagi kichik do‘nglik, yassi balandlik” ma’nolarini beradi. Uva ~ uba ~ o‘ba – kelib chiqishiga ko‘ra turkiy tillarga xos so‘z. Tatar tilida uba – “kichik balandlik, baland joy; boshqirdlarda – “tepa; qaracha-balqar, qaraim, no‘g‘ay tillarida oba – “tosh uyumi”; “tepa, tepalik” ma’nolariga ega [18:114]. Genezisi mo‘g‘ul va tungus-manjur tillaridagi obo ~ ovo (tepa, do‘nglik, balandlik, yolg‘iz

tepalik; tosh uyumi, tosh to‘da) so‘zi bilan bog‘liq. Bu termin ornimik indikator sifatida Uvaliq (yaylov) oronimida saqlangan. Shuningdek, bu indikatorni Uvada (Chr., q-q.) toponimida ham ko‘rish mumkin. Tarkibiy tuzilishiga ko‘ra uva+da shaklida bo‘lgan bu nomning ikkinchi komponentini T. Nafasov –da < o:ta ~ o:da (do‘nglik, balandlik; suv ichidagi baland joy, orol) shaklida o‘zgarib borganligini ko‘rsatadi [14:186].

Shiram. Bu so‘z mahalliy xarakterdagi orografik termin hisoblanib, “tog‘ bag‘ridan quyi tomon davom etgan cho‘ziq balandlik, uzun qir, tizma” tushunchalarini ifodalaydi. U asosan Janubiy O‘zbekiston, Turkmaniston va Tojikiston qo‘ng‘irotlari nutqida uchraydi. Dehqonobod tumanining tog‘li hududlar aholisi nutqida “bir tomoni tik jarlik bo‘lib, boshqa tomonlari yassiroq yoki qiyalik bo‘lgan cho‘ziq balandlik” tushunchasini ham ifodalaydi [14:19]. Bu so‘z oronimik indikator sifatida joy nomlari yasalishiga xizmat qiladi. Jumladan, Shiram (Do., balandlik, tizma), Shiran (Qm., tepa), Asqarshiram (Do., balandlik), Mullashiram, Bo‘lakshiram, Qizilshiram, Uzunshiram (Do., balandliklar) oronimlari misolida buni ko‘rish mumkin.

Shoti. O‘zbek tilining ayrim shevalarida narvon ma‘nosidagi so‘z bilan shakldosh bo‘lgan bu orografik termin “yolg‘iz yo‘li bo‘lgan katta balandlik, cho‘qqi” ma‘nolariga ega. U shu ma‘nosi asosida oronimlar tarkibida indikator sifatida qo‘llanadi: Tuyashoti (Do., balandlik).

Qashqa. Bu so‘z yasama bo‘lib, tarkibiy jihatdan qash+qa qisimlariga bo‘linadi. U umumturkiy tillarga tegishli qadimgi so‘z hisoblanadi. Qadimgi turkiy tilda qash – tepa, balandlik [11:412]; XI asr turkiy tilida har narsaning cheti, yoqasi, yoni, qirg‘oq ma‘nosiga ega bo‘lgan [9:III, 166; 70:431]. XIII asr yodgorliklarida – tog‘ cho‘qqisi, balandlik, tizma tog‘ [10:160] ma‘nolarini bildirgan. L.Z. Budagov lug‘atida chig‘atoy tilida qash – “balandlik, tepa, tog‘ tizmasi, do‘nglik” [2:II,15]; V.V. Radlov lug‘atida qash – “o‘simta, qavariq joy; balandlik, tepa, ko‘tarma; baland qirg‘oq; yon, chet” [15:II, 386] kabi ma‘nolarga ega ekanligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, Oltoy tillarida qash – qirg‘oq, biron narsani cheti; tepa, balandlik; uch, etak [3:133, 136]; tog‘ cho‘qqisi [5:194]; xakas tilida xas – qirg‘oq; balandlik, do‘nglik; biron narsaning cheti, qirg‘og‘i [20:278] ma‘nolarini bildiradi. Yuqorida keltirilgan misollardan ko‘rinadiki, bu so‘z umumiy jihatdan ikki xil ma‘noga ega: 1) balandlik (tepa, cho‘qqi, tog‘ tizmasi); 2) qirg‘oq (biron narsa yoki balandlikning cheti, yoni). Bu so‘zning ma‘nolaridan ko‘rish mumkinki, u orografik xarakterdagi termin hisoblanadi. U shu ma‘no xususiyatlari asosida oronimlar yasalishiga xizmat qilgan. Masalan, Qashqatepa (G‘z., tepa), Qashqaqum (Do., joy), Qashqatau (Qozog‘iston, tog‘), Qashqaashu (Qirg‘iziston, dovon) kabi.

Qir. Bu soʻz orografik termin hisoblanib, usti yassi yoki salgina gumbazsimon balandliklar, tepaliklar, platolar, yassi past togʻlar tushunchasini ifodalaydi. Masalan, Oʻrta Rossiya qirlari, Volgaboʻyi qirlari. Qoraqum va Qizilqumdagi qoldiq plotalar, usta yassi past togʻlar ham «qir» deyiladi. Qirlar baland tekistliklar, togʻlarning oqar suvlar, shamol yemirilishidan, tektonik koʻtarilishidan hosil boʻladi [4:149]. Maxmud Koshgʻariy bu soʻzni ikki xil maʼnoda izohlaydi: qir - 1) “toʻgʻon, suv toʻplanadigan joy; 2) “qir, yassi togʻ” [9:I, 314]. U oronimik indikator sifatida orografik va boshqa turdagi obʼektlar nomlarini yasalishiga xizmat qilgan. Masalan, u Asqarqir (Yab., qir), Boʻlakqir (Ks., qir), Darvozaqir (Mb., balandlik), Oqqir (Ks., qir) kabi oronimlar tarkibida uchraydi. Xorazm toponimiyasida bu indikator “tekis maydon, ekin qilmaydigan katta dala, qoʻy boqiladigan tekislik, oʻtloq” maʼnolarini beradi [6: 66].

Baroz. Kelib chiqishiga koʻra eroniy tillarga tegishli bu soʻz «baland joy» maʼnosiga ega. Bu soʻz Avestoda keltirilgan Xar-Barazayti atamasi tarkibida uchraydi. U “baland xara” deb tarjima qilingan [1: 347]. Shundan bilish mumkinki, orografik xarakterga ega boʻlgan bu atama juda qadimgi tarixga ega. Tojikistonda bu soʻzdan yasalgan toponimlar uchraydi: Barozgo «baland joy» [17 : 69]. Bu atama osetincha barz «toʻda, balandlik, qoʻrgʻon, koʻplik»; bar «togʻ bagʻri», qadimgi armancha bardzravandon «yassitogʻlik» atamalariga mos keladi [7:189]. Orografik termin sifatida oronimlar yasalishiga xizmat qilgan. Qashqadaryo, Samarqand va Sirdaryo viloyatlarida bu termindan bir qator toponimlar yasalgan: Toʻpchiboybaroz, Kattabarozi, Kichikbaroz va b. [7:189]. Buzovut [Chr., q-q.) toponimi tarkibida ham shu termin saqlangan. Bu nom soʻgʻdcha barz+ovut komponentlaridan shakllangan. Eroniy va turkiy tillarda burz ~ borz ~ barz “baland, yuqori” variantlarida qoʻllangan. –ovut ~ -ovat ~ -ut – soʻgʻdcha avat “joy” soʻzidan shakllangan [14:45]. Bu nom dastlab oronim sifatida vujudga kelib, keyinchalik oykonimga oʻtgan.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan tahlillardan quyidagi xulosaga kelish imkonini beradi:

1. Relefning musbat shaklini ifodalaydigan orografik terminlar shu shakldagi oronimlarning shakllanishida muhim manba boʻlib xizmat qiladi.

2. Relefning musbat shakliga tegishli oronimlarning yasalishida shu turdagi har qanday orografik termin ham ishtirok etmaydi. Unda faqat qandaydir xususiyatiga ega boʻlgan, nom ijodkorlari boʻlgan aholining hayotiy ehtiyojlari, yashash tarzi bilan bogʻliq boʻlgan, oʻzaro munosabat natijasida ularning koʻproq eʼtiborini tortgan orografik obyektlarni ifodalaydigan terminlar oronimlar tarkibida muhim indikator sifatida qatnashadi.

3. Relefning musbat shakliga tegishli orografik terminlar kelib chiqishiga ko'ra qadimgi turkiy va eroniy tillarga tegishli lug'viy birliklardan shakllangan. Bu xususiyat mazkur hududda qadimdan yashab kelayotgan shu tillar vakllari tomonidan yaratilganligini ko'rsatadi.

REFERENCES:

1. Avesto (Tarixiy-adabiy yodgorlik). Toshkent: "SHarq" nashriyoti, 2001.
2. Geografik terminlar va tushunchalar izohli lug'ati (tuzuvchilar: Qorayev S., G'ulomov P., Rahimbekov R.). T., 1979.
3. Koshg'ariy M. Devonu lug'ati turk . : UzSSR fan. Akad. T.: Fan, T. I , 1960, - 449 b.; T. II, 1961, - 427 b.; T. III, 1963, - 466 b.
4. Navoiy asarlarining izohli lug'ati. I – VI, T., 1983 - 85.
5. Nafasov T. O'zbekiston toponimiyalarining izohli lug'ati . –T.: O'qituvchi, 1988.-290 b.
6. Rajabov O'.H. Topnimik indikatorlarning funktsional-semantik hususiyatlari. Nomzod. diss. avtoreferati. Toshkent, 2009. –S. 19.
7. Rozenfeld A. Z.. Toponimika Vandja v kn.: «Toponimika Vostoka», M., 1962. -S. 66 - 72.
8. Farxangi zaboni tojiki, I-II, M., 1969. -950 s.